



Tadqiqot uz

ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР МАВЗУСИДАГИ КОНФЕРЕНЦИЯ МАТЕРИАЛЛАРИ

2020

- » Ҳуқуқий тадқиқотлар
- » Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар
- » Тарих саҳифаларидаги изланишлар
- » Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни
- » Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни
- » Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар
- » Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар
- » Маданият ва санъат соҳаларини ривожланиши
- » Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши
- » Техника ва технология соҳасидаги инновациялар
- » Физика-математика фанлари ютуқлари
- » Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар
- » Кимё фанлари ютуқлари
- » Биология ва экология соҳасидаги инновациялар
- » Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари
- » Геология-минерология соҳасидаги инновациялар



Crossref



№20

30 сентябрь

conferences.uz

**"ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР"
МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА 20-КЎП ТАРМОҚЛИ
ИЛМИЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ
МАТЕРИАЛЛАРИ
16-ҚИСМ**

**МАТЕРИАЛЫ РЕСПУБЛИКАНСКОЙ
20-МЕЖДИСЦИПЛИНАРНОЙ ДИСТАНЦИОННОЙ
ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИИ НА ТЕМУ "НАУЧНО-
ПРАКТИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ"
ЧАСТЬ-16**

**MATERIALS OF THE REPUBLICAN
20-MULTIDISCIPLINARY ONLINE DISTANCE
CONFERENCE ON "SCIENTIFIC AND PRACTICAL
RESEARCH IN UZBEKISTAN"
PART-16**

ТОШКЕНТ-2020

ТЕХНИКА ВА ТЕХНОЛОГИЯ СОҲАСИДАГИ
ИННОВАЦИЯЛАР

1. Мамадалиева Дилдора Абдумаликовна, Алиева Дилбар Ганиевна ИПЛАРНИНГ ПИШИҚЛИГИГА ОҶОР ТАРКИБИНИНГ АҲАМИЯТИ.....	7
2. Ro‘zimatov Muxammadjon Abdumo‘min o‘g‘li, Odilov Xayrullo Raxmonjon o‘g‘li PORSHENNING ISHONCHLI ISHLASHIDA TASHQI KO‘RINISHINING AHAMIYATI	10
3. Quvvatova Dilfuza Toyirovna TEKNOLOGIYA FANINING SHAKL VA METODLARI.....	12
4. Radjabova Nargiza Djamalovna, Sharipova Gavhar Abdusalom qizi GUIDELINES FOR THE TEACHING OF ENGLISH IN THE SECONDARY SCHOOL	14
5. Болтаев Суннатилло Туймуродович, Рахмонов Бобомурод Бахтиёрович ЮҚОРИ ТЕЗЛИКЛИ МАГИСТРАЛЛАРДА ПЕРЕЕЗДЛАРНИНГ ХАВФСИЗЛИКНИ ТАЪМИНЛАШ.....	16
6. Вохидов Бахриддин Рахмидинович, Тагаев Илхом Ахрорович, Бойхонова Мохигул Юсуф кизи РОЛЬ МОДИФИЦИРУЮЩИХ СОЕДИНЕНИЙ ДЛЯ УЛУЧШЕНИЯ СОРБИРУЮЩИХ СВОЙСТВ БЕНТОНИТО-УГОЛЬНЫХ ОБРАЗЦОВ	18
7. Вохидов Бахриддин Рахмидинович, Хужакулов Нурмурод Ботирович, Бойхонова Мохигул Юсуф кизи ХАРАКТЕРИСТКА ОСНОВНЫХ СВОЙСТВ МЕСТНОГО СЫРЬЯ ДЛЯ ПОЛУЧЕНИЯ НОВЫХ ВИДОВ СОРБЕНТОВ	20
8. Назиржон Махаммаджанович Сафаров, Абдували Турғунпўлатович Мажидов, Мухиддин Жураевич Вохидов “ПАХТАНИ ҚАЙТА ИШЛАШ КОРХОНАЛАРИДА ПАХТА ТОЛАСИНИ СИФАТЛИ ЖИНЛАШ жараёнида энергиятежамкор технологияларни қўллаш”	22
9. Мухиддин Жураевич Вохидов, Асилбек Шухратжонович Мирзаумидов, Абдували Турғунпўлатович Мажидов ЭФФЕКТИВНЫЙ ОБЛЕГЧЕННЫЙ ПИЛЬНЫЙ ЦИЛИНДР ДЖИНА.....	25
10. D.Botirov, I.Boltaboyev MULTIMEDIA TEKNOLOGIYALARINING TA'LIMDA TUTGAN O'RNI	27
11. Sharipova Muhabbat Choriyevna STEAM TA'LIM TEKNOLOGIYALARINING TA'LIM TIZIMIGA JORIY ETILISHI	29
12. To‘rayeva Yulduz Nurmammedovna TEKNOLOGIYA DARSLARIDA FOYDALANILADIGAN QO‘L MEHNATINING USULLARI.....	31
13. Джалолова Дилафруз Фаттоховна, Шарипова Шахруза Нусрат кизи ТЕХНИКА ОЛИЙ ЎҚУВ ЮРТЛАРИ ТАЪЛИМ ЖАРАЁНИДА ДАСТУРИЙ ВОСИТАЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШНИНГ НАЗАРИЙ ТАҲЛИЛИ	33
14. Каландаров И.И. ЗАДАЧИ УПРАВЛЕНИЯ ОРГАНИЗАЦИЕЙ ПРОИЗВОДСТВА И ОПЕРАТИВНОГО УПРАВЛЕНИЯ В ЕДИНИЧНОМ ПРОИЗВОДСТВЕ.	37
15. Ro‘zimatov Muxammadjon Abdumo‘min o‘g‘li PORSHEN YUBKASINI GAZLAR BOSIMIDAN DEFORMATSIYALANISHI.....	38
16. Каландаров И.И. ОПЕРАТИВНОГО УПРАВЛЕНИЯ	41



MULTIMEDIA TEXNOLOGIYALARINING TA'LIMDA TUTGAN O'RNI

Dosent D.Botirov (Jizzax Davlat Pedagogika instituti)
I.Boltaboyev (Jizzax Davlat Pedagogika instituti magistranti)
(Zamonaviy tadqiqotlar, innovatsiyalar,
texnika va texnologiyalarning dolzarb
muammolari va rivojlanish tendensiyalari,
tel: (93)-293-94-77)

Annotatsiya: Ushbu maqolada ta'lim jarayonida axborot texnologiyalarining o'rni, ulardan maqsadli foydalanish, virtual stentlardan foydalanish va ulardan maqsadli foydalanish haqida ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: axborot-kommunikatsiya, multimedia, virtual, stent, elektron darslik.

Bugungi kunda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) barcha sohaga deyarli kirib keldi. Shu jumladan ta'limda ham AKTdan keng foydalanilmoqda. Ta'lim muassasalarida dars jarayoniga AKT joriy etilishi ta'lim samarasini oshirishning asosiy omili bo'lib xizmat qilmoqda. Ta'lim jarayonida o'quvchi-yoshlarga texnik vositalar va multimedia texnologiyalari asosida ta'lim berish, berilayotgan bilimni tez va oson o'zlashtirilishi, ularning tushunarli va xotirada yaxshi saqlanishiga yordam berayotganligi amalda o'z isbotini topmoqda.

Hozirgi kunda axborot kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi va barcha sohalariga kirib borishini hisobga olib aytadigan bo'lsak, oliy va o'rta maxsus ta'limda foydalanilayotgan darslik va qo'llanmalarining raqamli ko'rinishi yaratilib darslarda elektron variantidan foydalanilmoqda. Bunda birqancha avzalliklari mavjud, masalan, internet tarmog'i orqali adabiyotni osongina topish mumkin, kerakli jumlani tezroq topish imkoni ham mavjud. Hozirda nashiryotlarda chop qilinayotgan maktab darsliklar, badiiy adabiyotlar, gazeta va jurnallarning elektron ko'rinishi internet tarmog'iga joylanmoqda. Elektron shakli bo'lmagan adabiyotlarning elektron shakli zamonaviy skaner apparatlari yordamida yaratilmoqda va internet tarmog'iga joylanmoqda.

O'qituvchilarning an'anaviy o'qitish usulida laboratoriya va amaliy ishlar o'tkazilishi uchun ko'p vaqt ajratiladi. U nafaqat o'quvchi-talabanning nazariy bilimlarini mustahkamlashga, o'quv materialini o'zlashtirish samarasini oshirishga, balki muayyan sohada amaliy ko'nikmalarni hosil qilishga ham ko'mak beradi. Biroq bunday mashg'ulotlar to'laqonli natija beradi, deya olmaymiz. Sababi — ayrim laboratoriya jihozlari yetarli darajada emasligi hamda laboratoriya va o'quv xonalari zamonaviy moslama va uskunalar bilan soz holda jihozlanmaganligi, mavjudlarining ham aksariyati ma'naviy eskirib borayotganligi va bugungi kun talablariga to'liq javob bera olmasligidadir. Texnologiyalar tez sur'atda rivojlanayotgan hozirgi vaqtda amaliy mashg'ulotlar uchun laboratoriya va stendlarni har bir o'quv yilida takomillashtirish talab etiladi. Buning uchun esa qo'shimcha sarf-xarajatlar ko'zda tutilishi zarur.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, mutaxassis-kadrlarni tayyorlash uchun muhim vazifalarni hal etishga yordam bera oladigan yangi samarali, hammabop pedagogik uslubni joriy etish zaruriyati tug'iladi. Buning uchun laboratoriya stendlari va o'quv ustaxonalaridagi mashg'ulotlar barcha o'quvchilar uchun nafaqat qiziqarli, balki qulay va oson bo'lishiga erishish lozim. Mashg'ulotlar o'ziga jalb eta olishi, barcha ruhiy va didaktik omillarni hisobga olishi, jarayonlarni jo'shqin tarzda namoyon etishi, mashg'ulotlar o'tkazish va o'qitilayotgan fanni o'zlashtirishni, umuman, butun ta'lim jarayoni samarasini oshirishi, o'quvchilarda o'z egallagan bilimlariga baho berish imkoniyatini ta'minlashi zarur. Aynan shu nuqtai nazardan, zamonaviy multimediali texnologiyalarning tatbiq etilishi yuqorida ko'rsatilgan vazifalarni hal qilishda va an'anaviy o'qitish usulining bir qator kamchiliklarini bartaraf etishga ko'mak beradi.



Hozirgi davrda oliy va o'rta maxsus ta'lim muassasalarida o'rgatilayotgan fanning elektron qo'llanmalari yaratilmoqda. Bularga elektron darslik, o'quv qo'llanmalari, virtual stendlar, video ro'liklar, elektron testlarni misol qilib keltirishimiz mumkin. Virtual stendning o'zi nima va ta'lim samarasini oshirishda qanday ahamiyatga molik? Virtual



stend — bu o‘quv amaliy stend yoki o‘quv-malaka ustaxonasi bo‘lib, o‘quvchi-talabalarning nazariy bilimlarini mustahkamlashga, kompyuter dastur va texnologiyalari orqali ma‘lum yo‘nalishda zaruriy ko‘nikmalarni hosil qilishga yordam beruvchi ta‘limiy AKT vositasidir. Laboratoriya ishini o‘tkazishda, uni zarur tartibda tushunish va boshqalar bilan bog‘liq vaqt yo‘qotish masalasi esa kompyuter samarasi hisobiga bartaraf etiladi.

Bunda, ayniqsa, moliyaviy zaxiralarning tejab qolinishi muhimdir. Zamonaviy oddiy kompakt diskka o‘nlab, ba‘zan esa yuzlab laboratoriya ishlarini joylashtirish mumkin. Endi bir dona shunday virtual laboratoriya stendi qanchalik arzoniga tushishini hisoblab chiqish qiyin emas. Bundan tashqari, ular bilan birga, ta‘lim muassasalarini yalpi ta‘minlash mumkin. Internetga ulanish tarmog‘ining mavjudligi esa, undan ham yaxshi samara beradi. Ta‘lim jarayoniga virtual stendlarning joriy qilinishi natijasida, an‘anaviy ta‘limga nisbatan mutaxassislarni tayyorlash bo‘yicha ta‘lim jarayonining yanada yuqori sifati ta‘minlanadi.

Ta‘lim jarayonida virtual stendlardan foydalanish ta‘lim sifati va samarasini oshirib, sarf-xarajatlarni kamaytibgina qolmay, balki ekologik toza, xavfsiz, muhit yaratilishi omili ham hisoblanadi. Virtual stendlar joriy etilishi bilan ta‘lim mazmuniga boshqacha yondashuv talab etiladi. Multimedia stendlari vositasida o‘quvchilar har qanday axborotni nafaqat ko‘rib, balki eshitib ham xotiralarida saqlab qolishlari osonlashadi.

Xulosa qilib aytganda, bugungi kunda multimedia texnologiyalari — ta‘lim jarayonini axborotlashtirishning istiqbolli yo‘nalishlaridan biridir. Ta‘lim jarayoniga multimedia texnologiyalarini joriy etish talabalar va o‘quvchilarni intellektual rivojlantirish hamda jamiyatimizni ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiy ettirishning muhim shartidir. Shu sababli ham bugungi kun o‘qituvchisi tinimsiz o‘z ustida ishlashi, keng ijodiy tafakkurga ega, ilg‘or pedagogik va multimedia texnologiyalarini samarali qo‘llay oladigan shaxs sifatida o‘z kasbiy-mutaxassisligi uchun zarur fazilatlar egasi bo‘lishi davr talabidir. Ta‘lim jarayoniga zamonaviy axborot texnologiyalarining joriy etilishi dasturiy va metodik ta‘minotni takomillashtirish, moddiy baza, shuningdek, o‘qituvchi mutaxassislar malakasini oshirishni talab etadi. Multimedia vositalari pedagog-kadrlarining malakasini va mahoratini yanada oshirishlarida ham muhim ahamiyatga molikdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. <http://library.ziyounet.uz/ru/book/>
2. “Zamonaviy informatikaning dolzarb muammolari: o‘tmish tajribasi, istiqbollari” Respublika miqyosida ilmiy-amaliy anjuman materiallari.